NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA XALQONA INONCH VA E’TIQODLARNING LISONIY-PRAGMATIK VOQELANISHI

Qo‘ziyev Umidjon Yandashaliyevich
Namangan davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori (DSc).
Sobirjonova Mavludaxon Tolibjon qizi
Namangan davlat universiteti talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada taniqli o‘zbek adibi O‘tkir Hoshimovning badiiy mahorati, xususan, uning asarlarida xalqona inonchlar, irim-sirimlar, animistik va mifologik e’tiqodlarning til vositalari orqali ifodalanish xususiyatlari lingvopragmatik, kognitiv va lingvopoetik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot asosi sifatida adibning o‘zbek milliy mentalitetini yorqin aks ettirgan „Dunyoning ishlari«va „Ikki eshik orasi«asarlaridan olingan kontekstual parchalar xizmat qiladi. Matnda inonch modalligini yuzaga chiqaruvchi asosiy lingvistik qatlamlar – leksik-semantik birliklar, undov so‘zlar, yuklamalar, kirish birikmalari hamda grammatik formalarning (xususan, -mish qo‘shimchasi) pragmatik funksiyalari va matn yaratish potensiali ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘tkir Hoshimov, badiiy matn, lingvopragmatika, inonch modalligi, subyektiv munosabat, xalqona e’tiqod, lisoniy birlik, mifologik tasavvur, milliy ruh, lingvokultrologiya, kognitiv tilshunoslik.*

THE LINGUISTIC AND PRAGMATIC REALIZATION OF FOLK BELIEFS AND CONVICTIONS IN THE WORKS OF O‘TKIR HOSHIMOV

Abstract: *This article analyzes the artistic mastery of the prominent Uzbek writer O‘tkir Hoshimov, with particular emphasis on the linguistic expression of folk beliefs, superstitions, animistic and mythological convictions in his works from linguopragmatic, cognitive, and linguopoetic perspectives. The research is based on contextual excerpts from the writer’s works «Dunyoning ishlari» and «Ikki eshik orasi», which vividly reflect the Uzbek national mentality. The study reveals the pragmatic functions and text-forming potential of the principal linguistic layers that actualize belief modality in the text, including lexical-semantic units, interjections, particles, introductory constructions, and grammatical forms (particularly the suffix -mish).*

Keywords: *O‘tkir Hoshimov, literary text, linguopragmatics, belief modality, subjective attitude, folk belief, linguistic unit, mythological perception, national spirit, linguoculturology, cognitive linguistics.*

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКАЯ РЕАЛИЗАЦИЯ НАРОДНЫХ ВЕРОВАНИЙ И УБЕЖДЕНИЙ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ УТКИРА ХОШИМОВА

Аннотация: *В статье с лингвопрагматической, когнитивной и лингвопоэтической точек зрения анализируется художественное мастерство известного узбекского писателя Уткира Хошимова, в частности особенности выражения языковыми средствами народных верований, примет, анимистических и мифологических представлений в его произведениях. Материалом исследования служат контекстуальные фрагменты из повестей «Дела мирские» и «Между двух дверей», ярко отражающих узбекский национальный менталитет. В работе раскрываются основные языковые пласты, формирующие модальность верования, — лексико-семантические единицы, междометия, частицы, вводные сочетания, а также прагматические функции и текстообразующий потенциал грамматических форм (в частности, аффикса -mish).*

Ключевые слова: *Уткир Хошимов, художественный текст, лингвопрагматика, модальность верования, субъективное отношение, народные верования, языковая единица, мифологическое представление, национальный дух, лингвокультурология, когнитивная лингвистика.*

KIRISH

Badiiy matn nafaqat obyektiv voqelik haqida axborot beruvchi, balki inson ichki dunyosi, psixologik ruhiyati, milliy madaniyati va subyektiv munosabatlarini lisoniy shaklda muhrlovchi murakkab kognitiv-semantik tizimdir. Badiiy diskursda so‘zlovchi (yoki personaj)ning o‘z fikriga, atrof-muhitga va milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati modallik kategoriyasi orqali yuzaga chiqadi. Epistemik modallikning muhim sotsiomadaniy ko‘rinishi bo‘lgan inonch (ishonch, qat’iy e’tiqod) tushunchasi o‘zbek badiiy nasrida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Taniqli adib O‘tkir Hoshimov asarlarida xalqona

inonchlar va e'tiqodlar shunchaki etnografik element emas, balki qahramonlar dunyoqarashini ochib beruvchi yetakchi lisoniy-estetik vositadir. Adibning „Dunyoning ishlari«va „Ikki eshik orasi«kabi durdona asarlarida o'zbek xalqining ko'p asrlik hayotiy tajribasi, urf-odatlari, diniy-mifologik tasavvurlari turli darajadagi lug'aviy birliklar vositasida mahorat bilan ifodalangan. Bu esa badiiy matn tilini sotsiolingvistik, lingvokultrologik va lingvopragmatik aspektda tadqiq etish, xususan, O'tkir Hoshimov uslubidagi inonch konseptining lisoniy tabiatini ochib berish zaruratini belgilaydi va mazkur maqolaning dolzarbligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Modallik va uning tarkibiy qismi bo'lgan ishonch, inonch munosabatlari jahon va o'zbek tilshunosligida uzoq vaqtdan beri markaziy muammolardan biri sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Umumlisoniy miqyosda modallik tizimi va so'zlovchining o'z fikrining haqiqatligiga ishonchi masalalari F.R. Palmer hamda J. Layons kabi xorijiy olimlar tomonidan epistemik modallik doirasida keng yoritilgan. Rus tilshunosligida badiiy matnda subyektivlik va modal so'zlarning tabiati akademik V.V. Vinogradov ishlarida o'z aksini topgan. Ijtimoiy psixologiya va sotsiolingvistik yondashuvda T.P. Skripkina ishonchga mustaqil ijtimoiy hodisa sifatida qarab, uni subyekt va tashqi obyektni yagona tizimga bog'laydigan, xavfsizlik va foydalilik shartlari asosida yuzaga keladigan fundamental munosabat sifatida baholaydi.

O'zbek tilshunosligida modallik kategoriyasining grammatik va semantik xususiyatlari dastlab A.N. Kononov va keyinchalik professor R. Sayfullayeva boshchiligidagi tadqiqotchilar tomonidan tizimlashtirilgan. Badiiy matnning lingvopoetik tabiati va til birliklarining estetik funksiyalarini o'rganishda professor M. Yo'ldoshevning xizmatlari alohida e'tirofga loyiq.

Badiiy matnda inonch ifodalovchi birliklarning lingvopragmatik va kognitiv tabiatini yoritishda qator zamonaviy tadqiqotlar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Badiiy matn tarkibidagi lisoniy birliklarning pragmatik potensiali qahramonning ichki kechinmalari va subyektiv munosabatini ko'p hollarda yashirin (implitsit) modallik asnosida yuzaga chiqaradi[9]. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarda til birliklarining matn yaratish va ma'no ifodalash imkoniyatlariga doir kognitiv-stilistik xulosalar O'tkir Hoshimov prozasidagi milliy inonch ifodalari shunchaki statik so'zlar emas, balki kontekstual harakatdagi dinamik pragmatik vositalar ekanligini isbotlashga xizmat qiladi. Biroq, aynan O'tkir Hoshimov asarlarida xalqona mentalitet bilan bog'liq inonch va e'tiqodlarning leksik-semantik hamda pragmatik xususiyatlari alohida tizimli tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning materiallar bazasini O'tkir Hoshimovning o'zbek milliy turmush tarzi va tafakkurini yorqin aks ettirgan „Dunyoning ishlari«hamda „Ikki eshik orasi«asarlaridan olingan 65ta kontekstual parchalar tashkil etadi. Tadqiqotda kognitiv tilshunoslik, lingvokultrologiya va lingvopragmatika sohalarining zamonaviy metodlaridan foydalanildi. Xususan, matndagi inonch ifodalarini aniqlashda kontekstual tahlil, lug'aviy birliklarning ma'no qatlamlarini ochishda leksik-semantik tasniflash, lisoniy birliklarning qahramon nutqi va o'quvchi idrokiga ta'sirini belgilashda esa lingvopragmatik interpretatsiya metodlari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkir Hoshimov asarlarining lisoniy tabiati kuzatilganda, inonch va e'tiqod modalligini ifodalovchi birliklar shunchaki oddiy subyektiv munosabat bildirmasdan, balki o'zbek xalqining milliy-madaniy mentaliteti, lingvokultologik kodi va mifologik qatlamlari bilan uzviy bog'liqligi namoyon bo'ladi. Tahlil natijasida adib asarlarida inonch ifodalovchi lug'aviy va grammatik birliklarni mikrotizim sifatida quyidagi leksik-semantik guruhlarga ajratib tahlil qildik:

Kosmologik va mifologik tasavvurlar bilan bog'liq inonchlar.

Xalqona dunyoqarashda samoviy jismlar va tabiat hodisalarini inson taqdiri, hayoti va o'limi bilan bog'lash an'anasi qadimiy mifologik ildizlarga ega. Adibning „Dunyoning ishlari«asarida yulduz uchishi bilan bog'liq kognitiv jarayon bunga yorqin misoldir:

«Goho-goho osmonda birdan yulduz uchib qolardi. Hozirgina yonib turgan yulduz to'satdan lop etardi-yu, ingichka, nurli iz qoldirib g'oyib bo'lardi. Onam cho'chib tushardi: Esiz... Bir bechoraning joni uzildi-ya».

Ushbu parchadagi ishonch mazmunining markaziy ifodachisi „bir bechoraning joni uzildi«leksik birikmasidir. Bu yerda voqelik mantiqiy yoki ilmiy asosda emas, balki empirik-mifologik e'tiqod – «har bir insonning osmonda o'z yulduzi bor, yulduz uchsa, kimdir vafot etadi» degan xalqona qarash asosida talqin qilinmoqda. Lingvopragmatik jihatdan gap boshidagi „Esiz«undovi nafaqat emotsionallikni, balki so'zlovchining (onaning) ushbu mifologemaga bo'lgan qat'iy ichki ishonchini va subyektiv achinish munosabatini modallashtiradi. Gap oxiridagi „-ya«yuklamasi esa ushbu inonchning shubhasiz haqiqat ekanligini ta'kidlab, fikrning o'quvchiga ta'sir quvvatini oshirgan. Onaning voqeani ko'rishi bilan darhol bu xulosaga kelishi, ushbu arxetipik ishonch personaj tafakkurida mustahkam kognitiv model sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Shuningdek, jon va ruhning uyqu paytidagi holatiga doir animistik va mifologik tasavvurlar ham lisoniy shakllantirilgan:

„Oyimning aytishicha, odam uxlaganida joni tanidan chiqarmish-da, qanotli ot bo'lib osmonga uchib ketarmish«.

Matndagi „Oyimning aytishicha«kirish birikmasi axborot manbaini ijtimoiylashtirib, jamoaviy inonchga, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan xalq xotirasiga ishora qiladi va matnda ishonch uyg‘otuvchi modallik vositasi bo‘lib keladi. Fe’llarga birikkan „-mish«qo‘shimchasi esa o‘ziga xos lingvo-grammatik vosita bo‘lib, voqeaning bevosita so‘zlovchi tomonidan kuzatilmaganini, ammo xalq og‘zaki ijodi va mifologiyasidagi sirlilik, afsonaviylik va inonchning inkorsiz tabiatini ifodalaydi. „Joni tanidan chiqadi«, „qanotli ot«, „osmonga uchadi«kabi metaforik va mifologik obrazlar transsendent dunyoga bo‘lgan qat’iy ishonchning lisoniy fiksatsiyasidir.

Tabiat obyektlarini personifikatsiyalash (animizm) orqali inonch ifodasi.

O‘tkir Hoshimov prozasida animistik tasavvurlar, ya’ni tabiat unsurlarini, o‘simlik va daraxtlarni jonli mavjudot sifatida talqin qilish orqali shakllangan ishonchlar ham tizimli xarakterga ega. Masalan:

„Bodom yolg‘iz bo‘lgani uchun meva qilmaydi«.

Mazkur gapda „yolg‘iz bo‘lgani uchun«birikmasi inonch modalligini yuzaga chiqaruvchi asosiy konseptual vositadir. Daraxtga insoniy xususiyat (yolg‘izlik, sherikka muhtojlik) yuklash (personifikatsiya) orqali uning hosildorlik tabiati va bog‘dorchilikdagi changlanish xususiyati xalqona tafakkur asosida izohlanadi. Kontekstda „meva qilmaydi«fe’lining qat’iy inkor shaklida kelishi va tarkibida „balki«, „ehtimol«, „shekilli«kabi noaniqlik modal so‘zlarining ishlatilmasligi so‘zlovchining ushbu hayotiy-gnozeologik kuzatishga bo‘lgan qat’iy va shubhasiz ishonchini ko‘rsatadi.

Irim-sirimlar va fetishistik e’tiqodlar lisoniy tabiati.

Xalqning kundalik turmush tarzidagi ma’lum taqiqlar (tabu) va ramziy amallar til vositalarida keskin imperativ modal ma’no kasb etadi. Bunga quyidagi parcha yorqin misol bo‘ladi:

„Irimi yomon bo‘ladi. Molni arqoni bilan sotib bo‘lmaydi«.

Leksik sathdagi „irimi yomon bo‘ladi«birikmasi kelajakdagi noxushlik, barakasizlik yoki xo‘jalikka yetadigan zarardan ogohlantiruvchi e’tiqodiy predikativ hisoblanadi. Ikkinchi gapdagi „bo‘lmaydi«so‘zi esa qat’iy taqiq, ijtimoiy-maishiy qoidani ifodalab, so‘zlovchi nutqidagi har qanday ikkilanish yoki shubhani butunlay istisno qiladi, bu odatning ijtimoiy ongda qat’iy aksioma ekanligini ko‘rsatadi.

Xuddi shunday, mehnat mahsuli bo‘lgan ne’matlarni muqaddaslashtirish (sakrallash) ham adib qahramonlari tili orqali diniy-afsonaviy dunyoqarash kontekstida beriladi:

„Paxta jannatdan chiqqan«, - dedi ishonch bilan.

„Paxta jannatdan chiqqan«metaforik jumlasi paxtani shunchaki o‘simlik emas, balki ilohiy, fayz-baraka keltiruvchi muqaddas ne’mat deb bilish bilan bog‘liq subyektiv ishonch markazidir. Muallif tomonidan qo‘llangan „dedi ishonch bilan«muallif remarkasi lug‘aviy birlikning matndagi pragmatik vazifasini – ne’matga bo‘lgan cheksiz hurmat va baraka e’tiqodini bevosita tasdiqlaydi va matnning badiiy-e’tiqodiy ta’sirchanligini ta’minlaydi.

Ritual-marosim leksikasi va frazeologizmlar

Inonch ifodasi nafaqat individual gaplar, balki asrlar davomida shakllangan barqaror iboralar, xalqona hikmatlar va marosim atamalari orqali ham yuzaga chiqadi. „Ikki eshik orasi«asarida kelgan mana bu jumla xalq donishmandligiga bo‘lgan inonchni ko‘rsatadi:

„Rost bilan yolg‘onning o‘rtasi - to‘rt enlik«.

Bu yerda „to‘rt enlik«iborasi ramziy o‘lchov bo‘lib, ko‘z va quloq orasidagi masofani anglatadi, kontekstual sathda esa „eshitganingga emas, o‘z ko‘zing bilan ko‘rganingga ishon«degan qat’iy empirik-pragmatik xulosani modallashtiradi. Matndagi „ishon«fe’li esa butun boshli matniy qismning semantik-pragmatik o‘zagini tashkil qilib, o‘quvchini haqiqatni bevosita anglashga undaydi. Matndagi „gap shundaki«, „maqsad – shu«kabi kirish birikmalari esa ishontirish ohangini kuchaytiradi.

Marhumlar ruhi bilan bog‘liq metafizik inonchlarda esa rituallashgan leksika yetakchilik qiladi:

„Qirq degan xotinlarning ma’rakasi bo‘ladi. Kampirning arvohi shod bo‘lsin«.

Parchadagi „qirq«(motam marosimi) va „arvoh«so‘zlari o‘zbek lingvokulturasi uchun xos bo‘lgan, inonch bilan bog‘liq fundamental konseptual-lisoniy birliklardir. „Shod bo‘lsin«birikmasi esa tiriklarning amallari va duolari marhumlar ruhiga yetib borishi va ularni xursand qilishi haqidagi diniy-an’anaviy e’tiqodning lingvistik fiksatsiyasidir.

ILMIY MUNOSABAT VA MUHOKAMA

Olingan natijalar o‘zbek tilshunosligida badiiy matnda subyektiv modallik, lingvokultrologik kodlar va yashirin pragmatik ma’nolarning shakllanishi haqidagi nazariy qarashlarni boyitadi. Badiiy diskursda leksik vositalarning pragmatik potensiali qahramon interpretatsiyasida statik emas, balki dinamik xarakter kasb etadi. O‘tkir Hoshimov asarlarida inonch ifodalovchi leksika, undovlar (*Esiz*), yuklamalar (*-ya*), kirish konstruksiyalari (*Oyimning aytishicha*) va grammatik formalar (*-mish*) alohida-alohida lisoniy hodisa emas, balki yaxlit bir *matniy-pragmatik maydonni* hosil qiladi.

Ushbu tadqiqot F.R. Palmer (2001) va V.V. Vinogradov (1975) tomonidan ilgari surilgan epistemik modallik haqidagi nazariy qarashlarni milliy diskurs misolida amaliy dalillaydi. Ya’ni, o‘zbek milliy matnida inonch modalligi faqatgina so‘zlovchining subyektiv mantiqiy predikatsiyasi doirasida qolib ketmaydi, balki uning zamirida kuchli mifologik, etnografik va sotsiomadaniy fon bilimlari (background knowledge) yotadi. Adib asarlarida bu birliklarning qo‘llanilishi

asarning kompozitsion yaxlitligini, uning milliy ruhini hamda personajlar psixolingvistik tabiatining barqarorligini ta'minlashga xizmat qilgan.

XULOSA

O'tkir Hoshimov asarlarida inonch va e'tiqod ifodalovchi lisoniy birliklarni lingvopragmatik, kognitiv va lingvokultrologik aspektda tadqiq etish natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Adib ijodida inonch modalligi shunchaki personajlar nutqini individuallashtiruvchi uslubiy vosita emas, balki o'zbek xalqining ko'p asrlik milliy-madaniy mentaliteti, sotsial tafakkuri, mifologik qatlamlari va falsafiy dunyoqarashini badiiy matnga singdiruvchi, matnning **milliy ruhini** barpo etuvchi asosiy lisoniy omildir.

2. Badiiy matnda inonch mazmuni tizimli xarakterga ega bo'lib, u mikrotizim sifatida kosmologik-mifologik tasavvurlar (yulduz uchishi, jon sayohati), personifikatsiyalashgan tabiat obyektlari (bodom daraxti), an'anaviy taqiqlar va irim-sirimlar (mol arqoni) hamda ritual-marosim leksikasi (qirq, arvoh) orqali lisoniy shakllantiriladi.

3. O'tkir Hoshimov uslubida ishonch va qat'iy e'tiqod ma'nolari nafaqat alohida leksik birliklar (*«arvoh», «qirq», «ishonch bilan»*), balki undovlar (*«Esiz»*), yuklamalar (*«-ya»*), grammatik ko'rsatkichlar (*«-mish»*) va konseptual kirish konstruksiyalari (*«Oyimning aytishicha»*) yordamida yaxlit pragmatik maydon doirasida yuzaga chiqadi. Matndagi lisoniy vositalarning pragmatik salohiyati ko'p hollarda yashirin (implitsit) ma'nolar ko'chishi va qat'iy (inkorsiz) hukmlar vositasida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Palmer, F. R. Mood and Modality. Cambridge: Cambridge University Press, 2001.

2. Lyons, J. Semantics. Cambridge: Cambridge University Press,1977.

3.Виноградов, В. В. О категории модальности и модальных словах в русском языке. Исследования по русской грамматике. – Москва: Наука, 1975.

4.Скрипкина Т. П. Психология доверия. – Москва: Академия,2002.

5.Кононов А.Н.Грамматика современного узбекского литературного языка. – Москва-Ленинград: АН СССР, 1960.

6.Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo,2020

7.Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.

8. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma'naviyat,2000.

9. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Sharq, 2013

10. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Global Books, 2023.